

UDC: 343.851 (045)(575.1)

PENITENSIAR TIZIMDA PROFILAKTIK FUNKSIYANING AHAMIYATI VA UNING SAMARADORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

Salayev Nodirbek Saparbayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori, yuridik fanlar doktori
ORCID: 0000-0002-2147-8762
e-mail: n.salayev@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada penitensiar tizimda profilaktik funksiyani amalga oshirishning tutgan o'rne va ahamiyati, uning natijadorligi hamda samarasini oshirish masalalari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada penitensiar tizimning maqsad va vazifalari, bunda inson huquq va erkinliklari, jazo maqsadlarining davlat penitensiar tizimi xususiyati, jazo turlari, shu jumladan, ozodlikdan mahrum qilishning roli va penitensiar muassasalarning taqdiriga ta'siri, jazoning maqsadlaridan biri sifatida ijtimoiy adolatni tiklashning o'rne, O'zbekiston Respublikasining jinoyat-ijroiya qonunchiligida qayta ijtimoiylashuv yoki moslashuv maqsadini belgilash masalalari, penitensiar muassasalarning vazifalarini belgilashda asosiy, ya'ni jazoning maqsadlaridan bevosita kelib chiqadigan hamda ikkinchi darajali, ya'ni mazkur maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan vazifalarni farqlashning ahamiyati kabi masalalar ilmiy-nazariy tahlil qilingan. Bunda mahalliy va xorijiy olimlarning fikr va mulohazalari o'rganilib, ularga nisbatan mualliflik pozitsiyasi bildirilgan. Shuningdek, maqolada o'rganilgan masalalar yuzasidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan takliflar, jumladan, mahkumlarni ijtimoiy moslashtirish (adaptatsiya) va ularga psixologik yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish, mahkumlarni axloqan tuzatishda jamoatchilikning ishtiroki masalalari, jamoatchilik kuzatuv kengashi institutini joriy etish istiqbollari bo'yicha takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: penitensiar tizim, profilaktika, profilaktik funktsiya, jazo, jazoning maqsadi, jamoatchilik kuzatuv kengashi, ijtimoiy moslashtirish.

ЗНАЧЕНИЕ ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЙ ФУНКЦИИ В ПЕНИТЕНЦИАРНОЙ СИСТЕМЕ И ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ

Салаев Нодирбек Сапарбаевич,
доктор юридических наук, профессор
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В настоящей статье изучены значение и место профилактической функции в пенитенциарной системе, а также вопросы повышения ее эффективности. Кроме того, в статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы цели и задачи пенитенциарной системы в контексте прав и свобод человека, влияние целей наказания на особенности пенитенциарной системы, виды наказания, в том числе лишение свободы, а также судьба пенитенциарных учреждений. Также были рассмотрены место восстановления социальной справедливости в качестве одной из целей наказания, вопросы закрепления в уголовно-исполнительном законодательстве Республики Узбекистан ресоциализации и

адаптаци, значение разделения задач пенитенциарных учреждений на основные, то есть непосредственно вытекающие из целей наказания, и вторичные, то есть обеспечивающие достижение данных целей. При этом были изучены мнения отечественных и зарубежных ученых, в отношении них была изложена авторская позиция. Помимо этого, в статье были выдвинуты предложения по совершенствованию действующего законодательства Республики Узбекистан, в том числе по организации работы по социальной адаптации осужденных и оказанию им психологической помощи, вопросам участия общественности в нравственном исправлении осужденных, перспективам создания института совета общественного надзора.

Ключевые слова: пенитенциарная система, профилактика, профилактическая функция, цель наказания, совет общественного надзора, социальная адаптация.

THE IMPORTANCE OF PREVENTIVE FUNCTION IN THE PENITENTIAL SYSTEM AND ISSUES TO ENSURE ITS EFFICIENCY

Salaev Nodirbek Saparbaevich

Professor of Tashkent State University of Law,
DSc in Law

Abstract. This article examines the role and importance of preventive function in the penitentiary system, its effectiveness and efficiency. The article also discusses the goals and objectives of the penitentiary system, including human rights and freedoms, the impact of sentencing on the nature of the state penitentiary system, types of punishment, the role of imprisonment, and the fate of penitentiaries. The issues of re-socialization or adaptation in the penitentiary legislation of the Republic of Uzbekistan, and the importance of distinguishing between primary and secondary tasks in determining the functions of penitentiary institutions, have been scientifically analysed. In this case, the views and opinions of national and foreign scholars were studied and the author's position on them was expressed. The article also offers suggestions for improving the current legislation of the Republic of Uzbekistan, including the organisation of social adaptation and psychological assistance to prisoners, public participation in the correction of prisoners, and the introduction of a new legal institution – the public oversight board.

Keywords: penitentiary system, prevention, preventive function, punishment, the purpose of punishment, public oversight board, social adaptation.

Kirish

Davlat hokimiyatining funksiyalari davlat hokimiyati subyektlari tomonidan bajariladigan muayyan harakatlar orqali amalga oshiriladi [1, 304-b.].

Penitensiar tizim faoliyatining o'ziga xosligi uning ba'zi bir xususiyatlari to'g'risida so'z yuritish imkonini beradi. Bizning nazarimizda, bu xususiyatlar quyidagi omillar bilan belgilanadi:

1) penitensiar tizim maqsad va vazifalari-ning xususiyatlari;

2) penitensiar tizim faoliyatining mazmuni (axloq tuzatish muassasalaridagi rejim va ta'minlash vositalari);

3) axloq tuzatish muassasalaridagi alohida sharoitlar rejimining xususiyatlari;

4) axloq tuzatish muassasalari faoliyatining tashkiliy asoslari.

Penitensiar tizimning maqsad va vazifalari bir-biri bilan uzviy bog'liq. Ular penitensiar tizimning maqomi, davlat organlari tizimidagi o'rni va roli bilan belgilanadi. Penitensiar tizimning asosiy maqsadi mahkumlarni axloqan tuzatish, ham mahkumlar, ham boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olishdan iborat. Jinoyat uchun jazolarni ijro etishni tartibga soluvchi qonun hujjatlarida mazkur huquq sohasining maqsad va vazifalari ilk

bor mustaqil tushunchalar sifatida, ayniqsa, aniq ajratilgan.

Penitensiar tizimning maqsadlariga quyidagi vazifalar orqali erishish mumkin:

1) jazoni ijro etish va o'tash tartibi hamda sharoitlarini tartibga solish;

2) mahkumlarni axloqan tuzatish vositalarini belgilash;

3) mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilishni ta'minlash;

4) mahkumlarga ijtimoiy moslashuvda yordam ko'rsatish va h.k.

Penitensiar tizimning maqsad va vazifalari uning funksiyalarini belgilaydi. Funktsiyalar faoliyat mazmuni, tuzilishi va chegarasini ko'rsatadigan hamda tushuntiradigan muhim huquqiy tushunchadir.

Hozirgi vaqtda jazoni ijro etish jarayoni mafkura qobig'idan chiqarilgani bois jazoning maqsadi – mahkumlarni axloqan tuzatishga erishish ularning huquqiy normalarga rioya etishlarini ta'minlashdangina emas, balki, eng avvalo, ularni axloqiy tarbiyalashdan iboratdir. Mazkur jarayonda inson, uning huquqlari va erkinliklari eng oliy qadriyat hisoblanadi.

Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tadqiq etishda umumilmiy uslublar: funksional yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, tarixiy, qiyosiy-huquqiy metodlardan foydalanilgan. Mavzu yuzasidan olimlarning fikr va mulohazalari tahlil qilinib, tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

Tadqiqot natijalari

Jinoyat uchun jazoning maqsadlari muammosini yechish penitensiar muassasalarining vazifalarini belgilash va ular faoliyatining xususiyatini aniqlash uchun juda muhimdir. Jazoning maqsadlari davlat penitensiar tizimining xususiyatiga, jazo turlari, shu jumladan, ozodlikdan mahrum qilishning roli va penitensiar muassasalarining taqdiriga jiddiy ta'sir ko'rsatadi [2, 27-b.].

M.P. Melentyev fikriga ko'ra, jazoning ijtimoiy vazifasi mahkumlarni qayta tarbi-

yalashdan emas, balki ularni axloqan tuzatish va tarbiyalashdan iborat. Zero, ozodlikdan mahrum qilish sharoitida shaxsni qayta tarbiyalash mumkin emas, qisqa muddatli jazolarni ijro etishda esa mazkur vazifani qo'yish to'g'ri bo'lmaydi [3, 56-b.].

Jinoyat va jinoyat-ijroiya huquqi fanida jinoyat uchun jazoning maqsadlari uzoq yillar mobaynida muhokama qilib kelinadi. Mazkur muammo bilan shug'ullanadigan olimlar o'rtasida jinoyat uchun jazoning maqsadlari, ayniqsa, axloq tuzatishning maqsadi xususida yagona nuqtayi nazar mavjud emas [4, 10-16-b.]. K.Sich fikriga ko'ra, insonni jazolash yo'li bilan qayta tarbiyalash amalda mumkin emas, ijtimoiy nuqtayi nazardan esa zararlidir. Bunday qayta tarbiyalash konsepsiyasi N.A. Belyayev, I.V. Shmarov va boshqa olimlar tomonidan ham tanqid qilingan.

Boshqacha nuqtayi nazarlar ham mavjud. Xususan, A.L. Remenson fikriga ko'ra, axloq tuzatish – bu mahkumni jamiyat uchun foydali a'zoga aylantirishdir. Axloq tuzatish – bu jarayon, qayta tarbiyalash esa – natijadir [5, 12-b.].

JK 42-moddasining ikkinchi qismida mustahkamlangan qoidaga muvofiq, jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Jinoyat uchun muayyan jazolarni ijro etish jarayonida mazkur maqsadlarga ma'lum o'zgartirishlar kiritiladi. Xususan, JIKning jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining vazifasini belgilashga bag'ishlangan 2-moddasida jazo ijrosini ta'minlash, mahkumlarni axloqan tuzatish, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish nazarda tutiladi.

Shu o'rinda JIKdagi ayrim ziddiyatlarni e'tirof etish joiz. Jumladan, 2-moddada "jazo ijrosini ta'minlash" haqida norma belgilangan. Bilamizki, qonun normasi aniq va bir

xilda qo'llanishni ta'minlaydigan darajada ifoda etilishi lozim. "Jazo" tushunchasi jinoiy jazodan tashqari boshqa turdagi jazolarni ham qamrab oladi. Ushbu atama Kodeksning 1-moddasida to'g'ri qo'llanilgan ("jinoiy jazo"). Qolaversa, jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining vazifasi faqat "jinoiy jazo ijrosini ta'minlash" emas, balki "jinoiy jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijrosini ta'minlash" hisoblanadi. Zotan, Kodeksning 1-moddasiga ko'ra, jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari jinoiy jazo, boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etish prinsiplari, tartibi va shartlarini belgilaydi. Shulardan kelib chiqib, *Kodeksning 2-, 3-, 5-, 7-moddalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish lozim.*

Qayd etish joizki, jinoyat sodir etilishi bilan jamiyatdagi ijtimoiy adolat buziladi. Aybdor shaxsga nisbatan belgilangan jazoni ijro etish orqali esa mazkur adolat muayyan darajada tiklanadi. Boshqacha aytganda, tayinlangan jazoni ijro etish ijtimoiy adolatni tiklashga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasiga ko'ra, davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi. Jazoni ijro etish muassasalari davlat nomidan faoliyat yuritir ekan, konstitutsiyaviy norma darajasida mustahkamlangan davlatning xalq oldidagi majburiyati hisoblangan ijtimoiy adolatni ta'minlaydi. Shunday ekan, bizningcha, ijtimoiy adolatni tiklash jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining vazifalaridan biri hisoblanadi.

Aslida, ijtimoiy adolatni tiklash jazo maqsadlari orasida haqli ravishda yetakchi o'rinni egallaydi, jamiyat va davlatning qadriyat-lari hamda maqsadlarini aks ettiradi, inson ehtiyojlari va manfaatlarini belgilash, uning hayot maqsadlariga erishish vositalari va usullari, xulq-atvor uslubini tanlashga ta'sir ko'rsatadi [6, 15-b.]. "Jazoning repressiv imkoniyatlari ijtimoiy adolatni tiklashning o'ziga xos jinoyat-huquqiy usuli hisoblanadi, ya'ni, bir tomondan, shaxs, jamiyat, davlat-

ning jinoyat bilan buzilgan manfaatlarni to'liq tiklash, boshqa tomondan esa – mahkumning ijtimoiy xavflilik darajasini uning qayta ijtimoiylashuvi yo'li bilan kamaytirish mumkin" [7, 12-b.].

Qayd etilganlardan kelib chiqib, *JIKning 2-moddasida "ijtimoiy adolatni tiklash"ni jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining vazifalaridan biri sifatida belgilash maqsadga muvofiq.* Bunday amaliyot bugungi kunda Qozog'iston Respublikasida joriy etilgan (Qozog'iston JIKning 4-moddasi).

Penitensiar tizimning eng muhim vazifalaridan biri mahkumlarni axloqan tuzatish hisoblanadi. Mahkumlarni axloqan tuzatish – jazoni ijro etuvchi organlar va muassasalar faoliyatining bosh yo'nalishi, u butun jinoyat-ijroiya qonun hujjatlari orqali "qizil satr" bo'lib o'tadi. Mazkur faoliyat yo'nalishi mahkumlar bilan muomalada bo'lishga doir xalqaro hujjatlar va standartlarning talablari bilan ham belgilanadi hamda uni amalga oshirish jazoni ijro etuvchi organlar va muassasalarning bosh vazifasidir. Bu borada Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 10-moddasida ham penitensiar tizim tomonidan mahkumlar uchun o'rnatilgan tartib ularni axloqan tuzatish va ijtimoiy qayta tarbiyalashdan iborat muhim maqsadni ko'zda tutadi, deb belgilangan.

Penitensiar huquq nazariyasida "axloq tuzatish" atamasi bilan bir qatorda ba'zan "qayta ijtimoiylashuv" atamasi ham qo'llaniladi. Bu tushunchalar, asosan, bir xil tushuncha sifatida qaraladi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, M.Ribakning tadqiqoti alohida diqqatga sazovor: u mahkumlarning qayta ijtimoiylashuvi deganda, jinoyatchini qonunga itoatkor inson (fuqaro)ga aylantirishga qaratilgan izchil jarayonni tushunadi [8, 18-b.]. V.Surovsev fikriga ko'ra, qayta ijtimoiylashuv jamiyatdan uzoqlashgan shaxs tomonidan ijtimoiy tajriba va ijtimoiy maqbul bilimlar tizimini o'zlashtirish natijasidir [9, 27-b.].

Bizning fikrimizcha, mahkumlarning qayta ijtimoiylashuvi ularda shaxsning zarur

bo'lgan ijtimoiy foydali xususiyatlari va fazilatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur faoliyat mahkumda inson, jamoat va mehnat, odamlar jamiyatining me'yorlari, qoidalari va an'alariga hurmatni shakllantirish hamda qonunga itoatkor xulq-atvorni rag'batlantirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Shunday qilib, axloqan tuzatish – bu mahkum shaxsiyatining qadriyatlar-normativ sohasini o'zgartirish, qayta ijtimoiylashuv esa yo'qotilgan ijtimoiy foydali fazilatlar va jamiyatda yashash amaliy ko'nikmalarini tiklash yoki shakllantirishdir.

So'nggi vaqtlarda ilmiy va amaliy xodimlar davrasida axloq tuzatish maqsadidan erishib bo'lmaydigan maqsad sifatida voz kechish va qayta ijtimoiylashuv maqsadining o'zi bilan kifoyalanish lozim, degan fikr ilgari surilmoqda.

Bizningcha, bu unchalik to'g'ri fikr emas. Barcha mahkumlar, ayniqsa, shaxsiyati salbiy aksilijtimoiy yo'nalgan ashaddiy jinoyatchilarni axloqan tuzatish mumkin emas. Ammo voyaga yetmagan jinoyatchilarning aksariyat qismiga, shuningdek, kriminal zararlanish darajasi jiddiy bo'lmagan katta yoshdagi mahkumlarga nisbatan axloqan tuzatish maqsadiga erishish mumkin.

Mahkumlarni axloqan tuzatish va ularning qayta ijtimoiylashuviga axloqan tuzatishning asosiy vositalari yordamida erishiladi. Mahkumni axloqan tuzatishning asosiy vositalariga jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi), ijtimoiy-foydali mehnat, tarbiyaviy ish, umumiy va hunar ta'limi, kasb tayyorgarligi va jamoat ta'siri kiradi (JIK 7-moddasi 2-qismi).

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, *JIKning 2-moddasida qayta ijtimoiylashuv yoki moslashuv maqsadini belgilash zarur.*

Jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadiga (JIK 2-moddasi) ikki yo'nalishda ish olib borish yo'li bilan erishiladi. Birinchisi – jazoni o'tash davrida mahkumlar tomonidan jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik. Mahkum yangi jinoyat sodir etish imkoniya-

tidan mahrum etilgan holda, mazkur maqsadga erishilgan deb hisoblanadi.

Ammo bu masala xususida turli nuqtayi nazarlar mavjud. Masalan, A.Natashev fikriga ko'ra, mahkumlar tomonidan ham jazoni o'tash davrida, ham jazodan ozod qilingandan keyin yangi jinoyatlarning sodir etilmasligi xususiy ogohlantirish maqsadiga erishish mezonini sanaladi [10, 174-b.]. Biroq I.Shmarov va A.Shamis bu fikrga tanqidiy yondashadi, xususiy ogohlantirish maqsadiga erishish natijasi faqat jazoni o'tash davrida mahkumning jinoiy bo'lmagan xulq-atvoridir, deb hisoblaydi [11, 61-b.; 12, 78-b.].

Buning uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan shaxslar jamiyatdan, mahkumlarning ayrim toifalari esa bir-biridan ajratiladi, mahkumlarni qo'riqlash va ularning xulq-atvori ustidan nazorat tashkil etiladi, ularning huquqiy maqomi o'zgartiriladi, masalan, xat-xabarlar senzurasini, ko'zdan kechirishlar, tintuvlar joriy etiladi va h.k.

Ikkinchi yo'nalish – sobiq mahkumlar va boshqa shaxslar tomonidan jinoyatlar sodir etilishining oldini olish.

Penitensiar tizim mavjudligining o'ziyoq umumiy ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. A.Marsev fikriga ko'ra, umumiy ogohlantirish o'z ichki tavsifiga ko'ra davlat-huquqiy xususiyatga ega bo'lgan choralar tizimi yordamida odamlar ongi va irodasiga alohida psixologik-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishdir [13, 32-b.].

S.Maksimov fikriga ko'ra, umumiy ogohlantirish jinoyat-huquqiy kompleksning odamlarni jinoyatlar sodir etishdan jazo qo'llash tahdidi ostida, ma'naviy taqiqni kuchaytirish yoki qonunga itoatkor xulq-atvorni rag'batlantirish yo'li bilan tiyib turish qobiliyatida ifodalangan psixologik-huquqiy vosita hisoblanadi [14, 3-b.]. A.Shamis mazkur ta'rifga tanqidiy ko'z bilan qaraydi va umumiy ogohlantirishga xususiy prevensiyaning tarkibiy elementi sifatida yondashadi [15, 79-b.].

Penitensiar muassasalar umumiy ogohlantiruvchi faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlash mushkul ish, chunki

qonunni qo'llash tahdidi, sud va penitensiar muassasalar faoliyati natijasida yoki ularning yig'indisi bilan ogohlantirish maqsadiga erishilgani yoki erishilmaganini aniqlash imkoniyati doim ham mavjud emas [11, 61-b.].

Jazoni ijro etishda umumiy ogohlantirish maqsadiga mahkumlarni saqlash rejimidan iborat bo'lgan xususiy ogohlantirish vositalarini qo'llash yo'li bilan erishiladi. Bu holda aynan jazoni o'tash rejimi umumiy ogohlantirish maqsadiga xizmat qiladi. N.Struchkov bu haqda shunday deb yozadi: "Barcha asosiy vositalar mahkumlarni axloqan tuzatish va qayta tarbiyalash maqsadiga, qisman maxsus (xususiy) ogohlantirish maqsadiga ham erishish uchun imkoniyat yaratsa, faqat jazolash (jazo), yuqorida zikr etilganlardan tashqari, umumiy ogohlantirish maqsadini ko'zlaydi" [10, 206-b.]. A.Shamis mazkur nazariy nuqtayi nazarga to'la qo'shiladi va G.Drovoisekovning [16, 16-b.] axloq tuzatish muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan umumiy ogohlantirish jazo unsurlaridan xoli bo'lgan vositalar bilan ham ta'minlanishi mumkin, degan fikriga tanqidiy yondashadi. G.Tumanov fikriga ko'ra, umumiy ogohlantirishni ta'minlovchi fakt sifatida, qo'rqitish va jazo qo'llash tahdididan tashqari, jazoni o'tayotgan shaxslarning axloqan tuzalganligi fakti amal qiladi [17, 276-b.].

Jazoning maqsadlari jinoyatchiga nisbatan yo'l qo'yiladigan jazolashning o'ziga xos chegarasi hisoblanadi. Ular gumanistik xususiyat kasb etadi va mahkum bilan bir qatorda, jazoni ijro etuvchi organlar va umuman jamiyatga qaratiladi [18, 25-b.].

Jazoning maqsadlari va penitensiar muassasalarning vazifalari nisbati, A.Shamis fikriga ko'ra, katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim ijtimoiy-huquqiy muam-molardan biri hisoblanadi [12, 9-b.].

Jazoning maqsadlari va penitensiar muassasalarning vazifalari ko'p jihatdan mos keladi, chunki bu penitensiar muassasalarning alohida ijtimoiy vazifasi bilan belgilanadi. Penitensiar muassasalar jinoyat uchun jazoni

ijro etish bilan bir qatorda, hayot faoliyatini tashkil etish bo'yicha ko'p sonli ta'minlash funksiyalarini ham bajaradi.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, A.Shamisning vazifalarni normativ yo'l bilan aniq qo'ymasdan, jinoyat uchun jazoni ijro etadigan har qanday muassasa vazifalarining asosiy yo'nalishini belgilash mumkin emas, degan fikriga qo'shilish mumkin.

Penitensiar muassasalarning vazifalarini belgilashda asosiy (jazoning maqsadlaridan bevosita kelib chiqadigan) va ikkinchi darajali (mazkur maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan) vazifalarni farqlash lozim. A.Shamis fikriga ko'ra, penitensiar muassasalarning eng muhim vazifalari qonunlar va qonun osti hujjatlarida, shu jumladan, boshqaruv reglamentlari – nizomlar, lavozim yo'riqnomalarida ta'riflanadi [12, 11-b.].

Jazoni ijro etuvchi organlar va muassasalar hamda ularda yuz beradigan jarayonlar turlicha ekanligiga qaramay, ularning jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan umumiy vazifalarini belgilash mumkin. Ularning orasidan jazolar, shu jumladan, ozodlikdan mahrum qilish jazosini ijro etish jarayoni, asoslari, tartibi va sharoitlarini tartibga soluvchi qonun hujjatlaridan kelib chiqib, umuman penitensiar tizim, shu jumladan, jinoyat-ijroiya tizimi va axloq tuzatish muassasalariga xos bo'lgan maqsad va vazifalarni ajratish mumkin.

JIK 2-moddasiga muvofiq, jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarining vazifasi jazo ijrosini ta'minlash, mahkumlarni axloqan tuzatish, jinoyatlar sodir etilishining oldini olish, mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Axloq tuzatish muassasalari jinoyat-ijroiya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi, jinoyat-ijroiya tizimi esa penitensiar tizimga kiradi. Shu munosabat bilan jinoyat-ijroiya tizimining maqsad va vazifalari, jazoni ijro etuvchi organlar va muassasalarning muayyan turlari, masalan, axloq tuzatish muassasalarining maqsad va vazifalarini farqlash mumkin.

Axloq tuzatish muassasalarining vazifalari penitensiar tizimning alohida ijtimoiy maqsadi bilan belgilanadi. Axloq tuzatish muassasasi serqirra ijtimoiy-huquqiy institut hisoblanadi. U jinoyat uchun jazoning mazmuniga ko'ra, eng murakkab turini davlat nomidan ijro etish bilan bir qatorda, mazkur muassasaning hayot faoliyatini tashkil etishga qaratilgan, ta'minlovchi xususiyatga ega bo'lgan ko'p sonli funksiyalarni bajaradi. Shu sababli axloq tuzatish muassasalarining vazifalari yanada keng, jazo maqsadlari doirasiga sig'maydigan nuqtayi nazardan qaralishi lozim [12, 12-b.].

Ta'riflangan vazifalarni qisqacha tahlil qilish, bizningcha, o'rinli bo'ladi.

Ma'lumki, jazoni ijro etishni ta'minlash jazoni ijro etuvchi organlar va muassasalarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Jinoyat uchun jazoni ijro etish muammosi ko'plab olimlar va penitensiar huquq fani boshqa vakillarining ishlarida, ayniqsa, mufassal tadqiq etilgan va nazariy jihatdan chuqur asoslangan [19, 135-b.].

A.Shamis fikriga ko'ra, jazoni ijro etish faqat jazo maqsadiga erishishning muhim vositalaridan biridir. Bundan tashqari, mazkur vositaning o'zi jazo maqsadlariga erishish funksiyasi sifatida amal qiladi [12, 12-b.]. Bunga ilgari N.Belyayev ham e'tiborni qaratgan, jazoni ijro etuvchi axloq tuzatish muassasalari uning barcha maqsadlariga, shu jumladan, umumiy prevensiyaga ham erishishni ta'minlashlari lozimligini qayd etgan edi [20, 74-b.].

Tadqiqot natijalari tahlili

Jazoni ijro etishda mahkumga nisbatan unga tayinlangan jazoga xos bo'lgan huquqiy cheklashlar amalga oshiriladi. Shunday qilib, jazoni ijro etish jarayonida mahkumga jazolovchi ta'sir ko'rsatiladi, ammo bu tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etmaydi, zero, jazo mahkumlarni axloqan tuzatish, shuningdek, yangi jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadlarida qo'llaniladi [21, 86-b.]. Jazoni ijro etish axloq tuzatish ta-

siri ko'rsatish choralari bilan bog'liq, shu sababli u jinoyat-ijroiya huquqi normalari bilan to'liq tartibga solinishi lozim.

Jinoyat uchun jazolarning muayyan turlarini ijro etish vazifasi JKning 14-moddasida ko'rsatilgan davlat organlari va muassasalariga yuklanadi. Xususan, jarima tariqasidagi jazo O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik jihatdan va moliyaviy ta'minlash departamenti tomonidan ijro etiladi. Muayyan huquqdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ichki ishlar organlari tomonidan ijro etiladi.

Mahkumlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish vazifasi penitensiar muassasalarda tegishli huquqiy tartibot va qonuniylik yordamida ta'minlanishi lozim.

Penitensiar muassasalarda saqlanayotgan mahkumlar, shuningdek, mazkur muassasalar hududida bo'lgan xodimlar, mansabdor shaxslar va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash vazifasi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi (ayniqsa, yopiq turdagi penitensiar muassasalarda). Mahkumlar xavfsizligini ta'minlash jarayoni tarkibiy elementlar sifatida quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim: mahkumlarning huquqlarini muhofaza qilishning ularning xavfsizligini ta'minlaydigan shakllari; mazkur huquqlar buzilgan taqdirda, ularni muhofaza qilish shakllari; mahkumning buzilgan xavfsizligini tiklash shakllari va mexanizmi [22, 82-b.]. Yopiq turdagi penitensiar muassasalarda mahkumlar mavjudligining xavfsiz sharoitlari amalda yaratilishi lozim. Qonun hujjatlarida xavfsizlik choralari ni ta'minlamaganlik uchun mansabdor shaxslarning javobgarligi choralari (jinoiy javobgarlikka qadar) nazarda tutilishi kerak.

Ozodlikdan mahrum etish joylarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish, ularning xavfsizligini ta'minlash vazifalari amaldagi qonun hujjatlarining qoidalari, shuningdek,

xalqaro hujjatlarning normalaridan kelib chiqadi. Xususan, Mahkumlar bilan muomalada bo'lish minimal standart qoidalarida penitensiar muassasalarda xodimlarning o'ta og'ir ish sharoitlarini hisobga olish hamda ularga tegishli imtiyozlar va mehnat sharoitlarini ta'minlash tavsiya etiladi.

Jazoni ijro etuvchi organlar va muassasalar o'z faoliyatida mahkumlarni axloqan tuzatish maqsadlariga erishish uchun muhim vazifa sifatida JIK 7-moddasining ikkinchi qismida ko'rsatilgan mahkumlarni axloqan tuzatishning asosiy vositalarini qo'llaydilar.

Jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi) axloq tuzatuvchi ta'sir ko'rsatishning muhim vositasi hisoblanadi. V.Pavlov fikriga ko'ra, jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi) – bu mahkumlarga yuklangan majburiyatlarning bajarilishi, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari amalga oshirilishi, mahkumlar va xodimlarning shaxsiy xavfsizligi, shuningdek, jazoni ijro etish prinsiplarini amalga oshirishni ta'minlaydigan huquqiy tartibotdir [23, 10-b.]. I.Korolev jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi)ni subyektlar va ishtirokchilar o'rtasida jazoni ijro etish jarayonida va mazkur jarayon bilan bog'liq holda yuzaga keladigan jinoyat-ijroiya va boshqa huquqiy munosabatlarni penitensiar muassasalarda tegishli huquqiy tartibotni ta'minlash maqsadida tartibga solish shartlari va tartibi sifatida ta'riflaydi [24, 13-b.]. Shuni qayd etib o'tish lozimki, saqlash rejimi bilan belgilanadigan jamiyatdan ajratish darajasi, huquqiy va maishiy cheklashlar har bir penitensiar muassasaning ma'muriyati tomonidan o'zboshimchalik bilan belgilanishi mumkin emas. Ular huquqiy norma bilan belgilanadi [12, 21-b.]. Mazkur cheklashlar tegishli normativ hujjatlarni qabul qiladigan davlat tomonidan bir qator holatlarga qarab o'rnatiladi. Ushbu holatlar jumlasiga mamlakatdagi umumiy ijtimoiy-siyosiy vaziyat, jinoyatchilik va unga qarshi kurashning holati, sodir etilayotgan jinoyatlar xususiyati, ularni sodir

etuvchi shaxslarning o'ziga xos xususiyatlari kiradi.

Penitensiar muassasada jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi) muammosi jinoyat-huquqiy jazoning insoniyligi, odilonaligi, maqsadga muvofiqligi va, binobarin, qonuniyligi muammosi bilan birikadi. Jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi) vositasida davlat fuqaroning shaxsiy hayotiga aralashadi, uning ozodligini sezilarli darajada cheklaydi. Jamiyat jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi)ni qo'llashning qat'iy yuridik kafolatlari belgilanishidan manfaatdor bo'lishi hamda shu bilan bir vaqtda, jazoni ijro etish va o'tashning belgilangan tartibi (rejimi)ga jazo maqsadlariga erishish uchun yetarli tus berishi lozim [25, 3-b.].

Ma'lumki, jazoning mohiyati jinoyat uchun jazoning muayyan turini ijro etishda belgilanadigan cheklashlar majmuida namoyon bo'ladi. Eng jiddiy cheklashlarni ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutadi. Yuridik adabiyotlarda ilgari surilgan fikrga ko'ra, ozodlikdan mahrum qilishda jazo ozodlikdan mahrum qilish faktining o'zi bilan cheklanadi, chunki mahkumlarni saqlash sharoitlari ham, ularning huquqiy holati ham ozodlikdan mahrum qilish faktidan kelib chiqadigan cheklashlardan tashqari, jazolash elementlarini o'z ichiga olmaydi [26, 53-b.]. A.Shamis mazkur nuqtayi nazarni yanglish deb hisoblaydi, chunki mahkumlarni saqlash sharoitlarida huquq normalari bilan mustahkamlangan jazolash elementlari mujassamlashadi [12, 63-b.].

Keng ko'lamli tarbiyaviy choralarni amalga oshirish mahkumlarni axloqan tuzatishning zaruriy shartidir. U turli-tuman vositalar va ularni qo'llash usullarini o'z ichiga oladi.

Tarbiyaviy ishni qonun yo'li bilan mustahkamlashning muhim ahamiyati yana shu bilan belgilanadiki, shu tariqa jazoning insonparvarlashuvi uchun huquqiy zamin yaratiladi, bunda mahkumning shaxsiyati va uni axloqan tuzatish bosh omilga aylanadi. Mazkur

holat huquq umumiy nazariyasining konseptual qoidalariga asoslanadi. S.Alekseev o'zining nazariy tadqiqotlarida huquq funksiyalarini ijtimoiy munosabatlarning subyektlari yoki ijtimoiy aloqalar tizimiga huquq bilan ta'sir ko'rsatish yo'nalishlari sifatida ta'riflaydi [27, 94-b.].

Hozirgi davr sharoitlarida mahkumlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishni amalga oshirishda ijtimoiy-psixologik va psixo-pedagogik xususiyatga ega bo'lgan vositalar, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Jazoning ijtimoiy ahamiyati uning ijtimoiy foydaliligi elementi sifatida tavsiflanar ekan, jinoyat bilan buzilgan ijtimoiy-psixologik tartibni tiklash farqlanadi.

K.Y. Igoshev fikriga ko'ra, ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan jinoyat – bu shaxsning qilmishdan oldingi vaziyatda aktuallashtirgan salbiy xususiyatlarining o'ziga xos faoliyatda aks etishidir [28, 38-b.].

Agar jinoyatda qonunbuzarlikning kriminal-huquqiy xususiyatiga emas, balki uning ijtimoiy-psixologik tomonini ham ko'radigan bo'lsak, axloq tuzatuvchi ta'sir ko'rsatish choralari jinoyatchining shaxsiyatiga ta'sir ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik vositalarini ham o'z ichiga olishi lozim [29, 25-b.].

A.Shamis fikriga ko'ra, ijtimoiy-psixologik xususiyatga ega bo'lgan choralarning jinoyat sodir etgan shaxslarga tarbiyaviy-ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatishni ta'minlash mexanizmidagi o'rni va rolini nazariy jihatdan asoslash uchun oqilona zamin mavjud [12, 112-b.].

Xulosalar

Shunday qilib, fikrimizcha, **ijtimoiy-psixologik va pedagogik xususiyatga ega bo'lgan choralarni axloq tuzatuvchi ta'sir ko'rsatish vositalari deb hisoblash va ularni jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida shunday vositalar sifatida mustahkamlash uchun barcha asoslar mavjud.**

Mazkur vositalarni Jinoyat-ijroiya kodeksida mustahkamlash davr talabi bilanagina emas, balki amaliyot ehtiyojlari bilan ham mos keladi. Boz ustiga, axloq tuzatish muas-

sasalarida psixologiya xizmatlari mavjud va ularning shtatlariga psixologik ma'lumotga ega bo'lgan yoki tegishli o'quv yurtlarida psixologik tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassislar bilan to'ldiriladigan psixologlar lavozimlari kiritilgan. Penitensiar muassasalarning psixologik laboratoriyalarini shaxsiy kompyuterlar bilan jihozlash maqsadga muvofiq bo'lib, bu mahkumlarni tadqiq etish dasturlaridan foydalanish va laboratoriyalarda o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari kiritilgan ma'lumotlar banklarini yaratish imkonini beradi. *Har bir penitensiar muassasada psixologik yordam xonasi tashkil etilsa, ayni muddao bo'ladi.*

Yuqoridagilardan kelib chiqib, JIKni quyi-dagi mazmundagi 98¹-modda bilan to'ldirish taklif etiladi:

“98¹-modda. Mahkumlarni ijtimoiy moslashtirish (adaptatsiya) va ularga psixologik yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etish

Jazoni ijro muassasasining ma'muriyati mahkumlar bilan individual ravishda ijtimoiy moslashtirish (adaptatsiya) va ularga psixologik yordam ko'rsatish ishlarini tashkil etadi.

Mahkumlarni ijtimoiy moslashtirish (adaptatsiya) ishlari quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1) mahkumlar bilan ishlash bo'yicha individual dasturlar ishlab chiqish;

2) mahkumlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

3) mahkumlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish maqsadida mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa davlat organlari va jamoatchilikni jalb qiladi;

4) mahkumning jamoatchilik bilan ijobiy aloqalarini kengaytiradi;

5) mahkumlarning xususiyatidan kelib chiqib, boshqa tadbirlarni amalga oshiradi.

Jazoni ijro muassasasining ma'muriyati mahkumlarni axloqan tuzatish maqsadida uning jamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatidagi maqomi, qonunga itoatkor xulq-atvori

qayta tiklanishini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Mahkumlar bilan tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish, har bir mahkumning individual-psixologik xususiyatini baholash, jamiyatdan ajratib qo'yish sharoitida mahkumlarni adaptatsiya qilishda ularga psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek, ularni ozodlikka tayyorlash maqsadida psixolog jalb etiladi.

Har bir jazoni ijro etish muassasasida mahkumlarning sonidan kelib chiqib, psixolog shtat birligi ajratiladi hamda psixologik yordam xonasi tashkil etiladi".

Ijtimoiy-foydali mehnat ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari singari jazoni ijro etishning muqarrar sharti hisoblanadi.

JIKda ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan har bir mahkumning mehnat qilish majburiyati mustahkamlangan.

Yuridik adabiyotlarda mahkumlarni mehnatga jalb qilish maqsadlari keng bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Mahkumlarni mehnatga jalb qilishning asosiy maqsadlarini iqtisodiy omillar, tarbiyalash va sog'lomlashtirish bilan bog'laydigan nuqtayi nazar, ayniqsa, qo'llab-quvvatlangan [20, 88-b.].

Mahkumlar mehnatini qo'llash maqsadlari qonun hujjatlarida muayyanlashtirilmagan, ammo yuridik adabiyotlarda bunday urinishlarga duch kelish mumkin.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda kuza-tilayotgan huquqiy davlat qurish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, mehnatni baholashda ijtimoiy adolat masalalarini anglab yetish jarayonlari penitensiar tizim bilan ham bevosita bog'liq va mahkumlar mehnati muam-molariga umumiy nuqtayi nazarlardan yon-dashishni talab etadi. Mahkumlar mehnati ozodlikdan mahrum qilish joylarida "axloqiy intizomga soladigan va yuksaltiradigan tur-mush tarzi"ni yaratishning bosh omillaridan biri hisoblanadi.

Mahkumlar mehnatining mohiyati haqida-gi tasavvurlar umuman mehnat, insonning

jamiyatdagi o'rni va roli haqidagi nuqtayi nazarlarning rivojlanish jarayonini aks ettiradi.

Penitensiar muassasalarni bozor muno-sabatlariga keng jalb etishga harakat qilin-moqda, ammo bunday urinishlar, bizning-cha, samara bermaydi, boshqa tomondan esa mehnatning iqtisodiy maqsadlarini birinchi o'ringa qo'yadi.

To'g'ri, hozirgi davrda iqtisodiy maqsad-lar axloq tuzatish muassasalarining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini rivojlantirish va ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilganlar mehnat bilan shug'ullanishlarini ta'minlash-ning eng muhim shartlaridan biri hisoblan-a-di. Ammo mazkur siyosat vaqtinchalik bo'li-shi va iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi bilan birinchi o'ringa boshqa maqsadlar chiqishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro bozor munosabatlari ishtirokchisiga aylanayotgani bois mamlakatimizning penitensiar tizimida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar penitensiar tizimlarining tajribasini o'rganish, bizning-cha, maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi vaqtda bu yo'lda ma'lum qadamlar tashlanmoqda. Biz-ning-cha, bozor munosabatlari jinoyat uchun jazolar tizimiga tatbiq etilishi mumkin emas, biz mehnat jarayonini bozordagi tebranishlar-ga qarab tashkil eta olmaymiz. Shu bilan bir vaqtda, penitensiar muassasalar mamlakatda-gi jarayonlarga qo'shilmasdan faoliyat ko'rsa-ta olmaydi (ayniqsa, mahkumlarni mehnatga jalb etish vazifasini bajarishda). Jinoyat-ijroi-ya tizimiga yuklangan asosiy vazifalarni bajarish har qanday sharoitda davlatning muayyan kafolatlari bilan ta'minlanishi lozim. Jazoni ijro etish tizimi mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yuz be-rishi mumkin bo'lgan beqarorlashtiruvchi ja-rayonlardan huquqiy va iqtisodiy himoyaga ega bo'lishi kerak [30, 15-b.].

Tarbiyaviy maqsadlar bilan bir qator-da mahkumlar mehnatining ijtimoiy ma-qsadlari ham birinchi o'ringa chiqishi lozim va bu mahkumlarning qayta ijtimoiy-lashuvi, ozodlikdan mahrum qilish joylari-

dan chiqqandan keyin ularni mehnat bilan bog'liq hayotga moslashtirish zarurati bilan belgilanadi. "Jinoyat-ijroiya tizimini isloh qilish jarayonida mahkumlar mehnati maqsadlarining o'zaro nisbatida ustunlik ijtimoiy maqsadlar tomonga o'tishi lozim va bu mahkumlarning mehnatda faolligini kuchaytirish, binobarin, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning samaradorligini oshirishga ko'maklashadi" [31, 22-b.].

Mahkumlarni mehnatga jalb etish uchun huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni ta'minlashga ham, eng avvalo, jazoni o'tayotgan shaxslarda mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan ishlab chiqarishni qayta qurishni amalga oshirish, ham mazkur faoliyatning boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish hisobiga erishish mumkin [32, 87-b.].

Ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning umumiy va hunar ta'limi qonun hujjatlariga muvofiq mahkumlarni axloqan tuzatishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi (JIK 7-moddasi).

Mahkumlarning umumiy ta'limini tashkil etish axloq tuzatish muassasalari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Faqat ozodlikdan mahrum qilish joylaridagina qo'llaniladigan alohida vosita bo'lmagan umumiy ta'lim o'zining bir qismi odatdagi sharoitlarda namoyon bo'lmasligi mumkin bo'lgan bir qator xususiyatlariga ko'ra, boshqa ta'sir ko'rsatish vositalari bilan o'zaro aloqaga kirishib, mahkumlarga jinoyat uchun jazoning maqsadlariga erishishda imkoniyat yaratadigan faol ta'sir ko'rsatishga qodir. Bu umumiy ta'limning tarbiyaviy xususiyatlari hisobiga ta'minlanadi [33, 14-b.].

Mahkumlarning kasb tayyorgarligi va kasb-hunar ta'limi axloq tuzatish muassasalari faoliyatida, ularning oldida turgan vazifalarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mehnat ixtisosligi va ijtimoiy-foydali mehnat mashg'ulotlarining yo'qligi jinoiy turmush tarziga olib keladigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Fikrimizcha, alohida shaxslar ham mahkumlarga nisbatan ijtimoiy ta'sir ko'rsatish subyektlariga aylanishlari mumkin va lozim. Ular jazoni ijro etishning maqsad va vazifalari haqida tasavvurga ega bo'lishlari hamda penitensiar muassasada doimiy asosda ishlamasliklari kerak. Ular mahkumlarga ta'lim olishda, foydali ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam berishlari, ularni ozodlikdagi hayotga tayyorlashlari va qayta ijtimoiylashuv davrida madad ko'rsatishlari mumkin. Mazkur shaxslarni, masalan, ijtimoiy tarbiyachilar yoki murabbiylar deb nomlash mumkin. Bunday g'amxo'rlik mansabdor shaxsning axloqan tuzatish va qayta ijtimoiylashuv borasidagi ishiga qaraganda ko'proq ijobiy samara beradi, deb o'ylaymiz. Ushbu shaxslar ijtimoiy ish sohasida yetarli tajribaga ega va mahkumga u ozodlikka chiqqandan keyin yordam ko'rsatishga qodir bo'lsalar, bizningcha, maqsadga muvofiq bo'ladi. Davlat bunday shaxslarga mahkumlarni axloqan tuzatish va ularning qayta ijtimoiylashuvida ishtirok etish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash bo'yicha yordam ko'rsatishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, JIKning 7-moddasida mustahkamlangan axloqan tuzatish vositalarini qo'llashda inobatga olinadigan holatlarni ham to'liq deb aytish mushkul. Bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilganda, Qozog'iston JIKda mamlakatimiz JIKdagi holatlardan farqli ravishda boshqa holatlar ham, jumladan, jazoni o'tash va undan ozod qilinishi muddatini ham inobatga olib, turli xil axloqan tuzatish vositalarini qo'llash mumkinligi nazarda tutilgan.

Qozog'istonda mavjud bo'lgan mazkur tajribadan kelib chiqib, O'zbekiston JIKda ham yuqorida qayd etilgan holatni inobatga olish zarur. Shu maqsadda **JIKning 7-moddasi uchinchi qismini** quyidagi tahrirda bayon etish taklif etiladi:

"Axloqan tuzatish vositalari jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari turi, sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, shuningdek, mahkumning shaxsi va

xulq-atvori, jazoni o'tash va undan ozod qilinishi muddatini inobatga olgan holda qo'llaniladi".

JIKda jamoat birlashmalari faoliyatining kuzatuv kengashlari va voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha komissiya singari an'anaviy shakllari nazarda tutilmagan. Bizning fikrimizcha, buning natijasida xatoga yo'l qo'yilgan va bu penitensiar muassasalar faoliyatida jamoatchilik ishtirokining jiddiy kamayishiga olib kelgan.

Amaldagi jinoyat-ijroiya qonun hujjatlaridagi mazkur kamchilik shundan iboratki, unda penitensiar tizim faoliyatida jamoat tuzilmalarining ishtirokiga lozim darajada e'tibor berilmagan. Jamoat tuzilmalarining ishtiroki JIKning 99-moddasida nazarda tutilgan bo'lsa-da, ammo ularning aniq shakllari va vakolatlari belgilab qo'yilmagan. Jamoatchilikning ishtiroki amalda faqat mahkumlarni tarbiyalash ishiga tatbiqan nazarda tutilgan.

Bizningcha, JIKda penitensiar tizim faoliyatida jamoat tashkilotining ishtirok etishi masalasiga aniqlik kiritilishi, mazkur faoliyatning asosiy yo'nalishlari mustahkamlanishi lozim. Jumladan, har bir jazoni ijro etish muassasasida vasiylik va jamoatchilik kengashi hamda kasaba uyushmalari, tarbiya koloniyalarida mahkumlarning ota-onalari qo'mitasini tashkil qilish maqsadga muvofiq. Shunga o'xshash normalarni qator rivojlangan davlatlar, xususan, Germaniya, Polsha, AQSh, Shvetsiya, RF, Qozog'iston jinoyat-ijroiya qonun hujjatlarida kuzatishimiz mumkin.

Jumladan, Qozog'iston JIKning 8-moddasida vasiylik va jamoatchilik kuzatuv komissiyasi, RF JIKning 23-moddasida jamoatchilik kuzatuv komissiyasi to'g'risida normalar mustahkamlangan. Shuningdek, Polshada mahkumlarning qayta ijtimoiylashuvida turli rehabilitatsiya markazlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday markazlardan biri Xans Xristian Kafed nomidagi Ijtimoiy yordam ko'rsatish, rehabilitatsiya qilish va qayta tarbiyalash uyushmasidir. 1997-yilning iyulida Sedelsi shahrida Polsha va Daniya hamkor-

ligida tashkil etgan mazkur xalqaro nohukumat tashkiloti ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o'tagan shaxslar bilan faol ish olib boradi [34, 24-b.].

Qayd etilganlardan kelib chiqib, JIKni quyidagi mazmundagi 7¹-modda bilan to'ldirish taklif etiladi:

"7¹-modda. Mahkumlarni axloqan tuzatishda jamoatchilikning ishtiroki

Vasiylik va jamoatchilik kuzatuv kengashi, mahkumlarning ota-onalari qo'mitasi, kasaba uyushmalari, mehnat jamoalari, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan jamoatchilik birlashmalari, diniy birlashmalar, siyosiy partiyalar va boshqa tashkilotlar hamda fuqarolar mahkumlarni axloqan tuzatishda ishtirok etishi mumkin.

Jamoatchilikning mahkumlarni axloqan tuzatishda ishtirok etishi quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

1) sotsiologik va shu kabi boshqa shaklda monitoring o'tkazish;

2) jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir chorasini ijro etuvchi muassasalar faoliyati us-tidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

3) jinoyat-ijroiya faoliyati sohasida qonun hujjatlari ishlab chiqish va jamoatchilik muhokamasidan o'tkazish;

4) mahkumlarga gumanitar va xayr-ehson yordamlari berish, tarqatish va ushbu jarayon-ni kuzatishda ishtirok etish;

5) jinoyat-ijroiya tizimi faoliyatini takomil-lashtirish va mahkumlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish yo'nalishida dasturlar va loyihalarni ishlab chiqish hamda amalga oshi-rishda ishtirok etish;

6) jazo va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etuvchi muassasalarga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turda yordam ko'r-satish.

Mazkur moddaning birinchi qismida qayd etilgan jamoatchilik vakillari o'zlariga ma'lum bo'lgan mahkumlarning shaxsiy hayoti to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning rozilgisiz oshkor qilishi mumkin emas".

O'z navbatida, JIKni **"Jamoatchilik kuzatuv kengashi"** deb nomlangan **4¹-bob** bilan to'ldirish, mazkur bobda jamoatchilik kuzatuv kengashining faoliyati asoslari, tashkil etish tartibi, kengash a'zoligiga qo'yiladigan talablar, jamoatchilik kuzatuv kengashi a'zosining huquq va majburiyatlari, kengash faoliyati shakllari, bu borada jazo va boshqa

jinoyat-huquqiy ta'sir choralarini ijro etuvchi muassasalarning majburiyatlarini aks ettirish zarur.

Yuqorida ta'kidlangan takliflar, o'ylaymizki, penitensiar tizim funksiyalari tizimida profilaktik funksiyaning ahamiyati va o'rni oshishi, ushbu funksiya samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Gerasimov A.P. Pravovye formy osushestvleniya gosudarstvennoy vlasti [Legal forms of exercising state power]. Moscow, 1996.
2. Struchkov N.A., Viktorova I.B. Obsuzhdeniye penitentsiarnykh problem na mezhdunarodnom urovne [Discussion of penitentiary problems at the international level]. Ryazan, 2011.
3. Melentyev M.P. Problemy vyrazheniya i zakrepleniya v ugovno-ispolnitel'nom zakonodatel'stve politicheskoy i vospitatel'noy funktsii prava [Problems of Expression and Consolidation in the Penitentiary Legislation of the Political and Educational Functions of Law]. Moscow, 1991.
4. Ponomarev S.N., Medvedeva N.T. Karat' ili preduprezhdad'? [Punish or warn?]. *Chelovek: Prestupleniya i nakazaniya – Man: Crime and punishment*, Ryazan, 2013, no. 1.
5. Remenson A.L. Teoreticheskiye voprosy ispolneniya lisheniya svobody i perevospitaniya zaklyuchennykh [Theoretical issues of execution of imprisonment and re-education of prisoners]. Abstract of PhD thesis. Tomsk, 1965.
6. Brilliantov A.V. Differentsiatsiya nakazaniya: ugovno-pravovye i ugovno-ispolnitel'nye problemy [Differentiation of punishment: criminal law and penitentiary problems]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Moscow, 1998.
7. Chernov A.D. Lisheniye svobody kak vid ugovnogo nakazaniya (ugovno-pravovye i ugovno-ispolnitel'nye aspekty) [Deprivation of liberty as a type of criminal punishment (criminal-legal and penitentiary aspects)]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1998.
8. Rybak M.S. Resotsializatsiya osuzhdyonnykh k lisheniyu svobody: problemy teorii i praktiki [Resocialization of convicts sentenced to deprivation of liberty: problems of theory and practice]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Saratov, 2001.
9. Surovsev V.A. Organizatsiya upravleniya ispravitel'nym protsessom v tsentre psikhologo-pedagogicheskoy i sotsialnoy raboty s osuzhdyonnymi [Organization of management of the correctional process in the center of psychological, pedagogical and social work with convicts]. Abstract of PhD thesis. Ryazan, 2002.
10. Struchkov N.A. Kurs ispravitel'no-trudovogo prava. Problemy Obshey chasti [Correctional labor law course. Problems of the General Part]. Moscow, 1984.
11. Shmarov I.V. Effektivnost' ugovnogo nakazaniya [Effectiveness of criminal punishment]. *Gosudarstvo i pravo – State and law*, 2013, no. 6.
12. Shamis A.V. Osnovnyye sredstva vozdeystviya na osuzhdyonnykh i mekhanizm ikh realizatsii [The main means of influencing convicts and the mechanism for their implementation]. Domodedovo, 1996.
13. Marsev A.I. Teoreticheskiye voprosy obshego i spetsial'nogo preduprezhdeniya prestupleniy [Theoretical issues of general and special prevention of crimes]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Sverdlovsk, 1975.
14. Maksimov S.V. Effektivnost obshego preduprezhdeniya prestupleniy [The effectiveness of general crime prevention]. Abstract of Doctor's degree dissertation. Moscow, 1993.

15. Shamis A.V. Osnovnyye sredstva vozdeystviya na osuzhdennykh i mekhanizm ikh realizatsii [The main means of influencing convicts and the mechanism for their implementation]. Domodedovo, 2006.
16. Drovosekov G.V. Osnovnyye voprosy ispolneniya nakazaniya v vide lisheniya svobody po sovetskomu ugovnomu pravu [The main issues of the execution of punishment in the form of deprivation of liberty under Soviet criminal law]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1965.
17. Tumanov G.A. Rezhim lisheniya svobody [Deprivation of liberty regime]. Moscow, 2016.
18. Kovalev V.M. Soderzhaniye i tseli nakazaniya, ikh vliyaniye na naznacheniye ispolneniya lisheniya svobody [The content and purpose of sentencing, their impact on the appointment of the execution of deprivation of liberty]. *Problemy ispolneniya ugovnykh nakazaniy – Problems of execution of criminal penalties*, Ryazan, 2011.
19. Tkachevskiy Yu.M. Progressivnaya sistema ispolneniya ugovnykh nakazaniy [Progressive penitentiary system]. Moscow, 1998.
20. Belyayev N.A. Tseli nakazaniya i sredstva ix dostizheniya [Purpose of punishments and means to achieve them]. St. Petersburg, 2013.
21. Speranskiy I.A. Nekotoryye teoreticheskiye problemy pravovogo regulirovaniya ispolneniya nakazaniya i primeneniya k osuzhdennym mer vospitatel'nogo vozdeystviya [Some theoretical problems of legal regulation of the execution of punishment and the application of measures to convicts of educational influence]. Moscow, 1990.
22. Cherny V.Ye. Mekhanizm realizatsii nakazaniya v vide lisheniya svobody [The mechanism of implementation of punishment in the form of deprivation of liberty]. Abstract of PhD thesis. Ryazan, 1996.
23. Pavlov V.G. Subyekt prestupleniya [Subject of the crime]. St. Petersburg, 2011.
24. Korolev I.I. Obespecheniye rezhima v ispravitel'no-trudovoy kolonii (pravovye i organizatsionnyye voprosy) [Ensuring the regime in the correctional labor colony (legal and organizational issues)]. PhD thesis. Ryazan, 1996.
25. Tumanov G.A. Rezhim lisheniya svobody po sovetskomu ispravitel'no-trudovomu pravu (Obshnye voprosy) [Regime of deprivation of liberty under the Soviet corrective labor law. (General questions)]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1964.
26. Noy I.S. Teoreticheskiye voprosy lisheniya svobody [Theoretical issues of imprisonment]. Saratov, 2015.
27. Alekseev S.S. Problemy teorii prava [Problems of the Theory of Law]. Sverdlovsk, 2012.
28. Igoshev K.Ye. Tipologiya lichnosti prestupnika i motivatsiya prestupnogo povedeniya [Typology of criminal personality and motivation of criminal behavior]. Moscow, 2014.
29. Xomlyuk V., Pozdnyakov V. Puti realizatsii osnovnykh napravleniy sovershenstvovaniya vospitatel'noy raboty s osuzhdyonnymi [Ways to implement the main directions for improving educational work with convicts]. *Vedomosti ugovno-ispolnitel'noy sistemy – Records of the penitentiary system*, 2001, no. 4.
30. Alferov Yu.A. Obshhiy krizis ugovno-ispolnitel'noy sistemy Rossii i osnovnyye puti yego preodoleniya v sovremennykh usloviyakh [The general crisis of the penitentiary system of Russia and the main ways to overcome it in modern conditions]. Ryazan, 2013.
31. Ilyushin N.N. Provovye i organizatsionnye voprosy stimulirovaniya truda osuzhdyonnykh v ispravitel'nykh koloniyakh [Legal and organizational issues of stimulating convicts there in correctional colonies]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 1998.
32. Radkevich B.C., Matrosov V.A. Organizatsiya trudovoy deyatel'nosti osuzhdyonnykh v usloviyakh rynochnoy ekonomiki [Organization of labor activity of convicts in a market economy]. Moscow, 2015.
33. Alferov Yu.A., Baydakov G.P., Lakeveev A.A. et al. Vospitatel'noye vozdeystviye obshheobrazovatel'nogo obucheniya na osuzhdyonnykh [The educational impact of general education on convicts]. Moscow, 2010.
34. Bagreeva Ye.G. Ob organizatsii penitentsiarnykh sistem v mezhdunarodnoy praktike [On the organization of penitentiary systems in international practice]. *Ugovno-ispolnitel'naya sistema: pravo, ekonomika, upravleniye – Penitentiary system: law, economics, management*, 2012, no. 5.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

4 / 2022

BOSH MUHARRIR:

Xodjayev Baxshillo Kamolovich

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor,
y.f.d., dotsent

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, Y. Yarmolik,

F. Muhammadiyeva, Sh. Yusupova

Musahhih: M. Patillayeva

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Obuna indeksi: 1387.

Jurnal 30.08.2022-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 16,50 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma raqami: 97.

TDYU tipografiyasida chop etildi.